



ZULFIYA QUROLBOY QIZINING “KELIN” HIKOYASIDA AYOL RUHIYATINING BADIYY TALQINI

Sadullayeva Darmonjon

Urganch davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada bugungi o'zbek hikoyanavisligida o'zining hikoyalari bilan nom qozongan va o'z hikoyalarida ayol obrazlarini mahorat bilan gavdalantira olgan adibamiz Zulfiya Qurolboy qizining “Kelin” hikoyasidagi ayol obrazlari ruhiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kelin, muloyim, itoatkor, sovg'a-salom, pul, obro'-mansab.

O'zbek ayollari o'zining iffati, hayovu adabi, ibosi, latofati, samimiyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bu sifatlar kelinlarning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Qaynona-qaynotasini o'z ota-onasidek ko'rib, ularning rozi-rizoligini topish uchun yelib yuguradigan, ularga itoat qilib ko'nglini topgan kelinlar bor. Ammo mansab, boylik orqali qaynona-qaynotaning xizmatini qilmasa-da, ularning ko'ngliga yo'l topadiganlari ham bor. Zulfiya Qurolboy qizining “Kelin” nomli hikoyasida ham ana shunday kelinlarning hayoti qalamga olinadi.

Hikoya bosh qahramonlaridan biri Xoldor kelin qaynona-qaynotasining ayni ko'ngilidagi kelin. Muslim momo va Tursunboy chol o'g'li Fayzimurod bilan ba'zan kelisha olmay aytishib qolishsa-da, kelini Xoldor bilan biror marta ham san-manga borishmagan, kelinining yelib-yugurib qilayotgan xizmatidan ko'ngillari to'q edi. Xoldor shunday soddagina, muloyim, itoatkor ayol. 2 yildan beri eri Fayzimurod shahardan uyiga kelmaydigan odat chiqara boshlaydi. Shunday bo'lsa ham Xoldor bu voqeя haqida miq ham etmaydi, qaynona-qaynotasiga nolinib ulardan alamini olmaydi ham, faqatgina ularning xizmatini qilib, duosini oladi. Muslim momoga ham kelinining ko'ziga tik qaramasligi, har narsaga noliyvermasligi xush yoqib, uni ich-ichidan duo qilardi. Kelinga rahmi kelgan chol-kampir o'g'lini qidirib ishxonasiga borishadi. Ammo ko'p bora o'g'lini uchrata olmay qaytib kelishadi. Ularning ko'ngliga o'g'lining boshqa ayolga o'ralashib qolganligi haqidagi o'y o'rashib qolgandi va bu o'ylar to'g'ri bo'lib ham chiqadi. “Durkungina ayol bilab qo'lтиqlashgancha zinalardan ko'tarilgan Fayzimurod ota-onasini ko'rdi-yu, haykal bo'lib qoldi. Ko'z-qoshlari popukday, lo'ppi yuzi oppoq, durkun ayol ham dovdirab qoldi...”⁶ Durkun ayolning uyidagi hashamat, bezaklar, saranjom-sarishtalik, chol-kampirning butun umr yiqqanlaridan-da 2-3 barobar qimmat jihozlar ularni dovdiratib qo'yadi. Ayol chol va kampirning ko'ziga baloday ko'rinadi. Ayol ham buni sezganday o'zi gap boshlab, ularga o'zining ham ichiga chiroq yoqsa yorishmasligini, birovnig nonini yarim qilganidan o'zi ham xafaligini, bir nechta marotaba Fayzimurodga uni tinch qo'yishini aytganini, hatto

⁶ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. –T: “O'zbekiston”. –B.309



uyiga ham kiritmay qo'ygan kunlari bo'lganini, 4 bolaning uvoliga qolgisi kelmaganini, lekin Fayzmurod ketishni istamaganini aytadi. Bu paytda Muslim momoning og'zidan birdan chiqib ketgan "Ko'chaning ovqati shirin tuyuladi!" gapini eshitsa-da, durkun ayol shartakilik qilmasdan, aksincha qizarinib yerga qaraydi. Aslida durkun ayol-Oygul Muslim momo o'ylaganday axloqi buzuq, kun bo'yi oynaning oldida o'ziga oro berib o'tirib, erkaklarni yo'ldan urishni xayol qiladigan ayollardan emas edi. Uning firmalari, ishi bor, hatto ba'zi paytlarda Fayzimurodning ham kam-ko'stini ta'minlab turadigan ayol edi. Oygulning, ya'ni durkun ayolning Muslim momo va Tursunboy cholga bo'lган munosabati, muloyim va samimiyo so'zlashi, qop-qora "inomarka"sida ularni bekatgacha eltib qo'yib, ikki sellofan paketda "ularni durustroq mehmon qilolmagani" uchun berilgan hadya chol-kampirning bu ayolga bo'lган munosabatini o'zgartira boshladi. Qaynona-qaynotasining shahardan to'lib-toshib kelganini ko'rgan sho'rlik Xoldor kelin bundan xursand bo'lib ketdi. Erining qayerdaligini so'ragan kelinga Muslim momo Fayzimurodning qorovulkxonada tunab yurganini, bola-chaqasini boqish uchun shunday yurganini aytib baqirib bergani haqida yolg'oni so'zlab, soddagina kelinini ishontiradi. Sho'rlik Xoldor ham erining tinch ekanligini bilib, qaynonasining gaplariga ishonib qo'yaqoladi.

Ertasi kuni Fayzimurod qo'lida sovg'a-salomlar bilan kirib keldi va ularni onasining yoniga surib qo'yib, "Sizga yaxshi parvarish kerak. Yoshlikda yeldingiz, yugurdingiz, endi qarilik gashrini suring-da!" degan gaplari Muslim momoda shubha uyg'otdi. "Bu gaplar bolasidan chiqmaganini payqagan momo o'g'liga zimdan ta'naomuz nazar tashladi. Fayzimurod onasining nigohlariga e'tibor bermadi. U yelkasidan tog' ag'darilganday ancha xotirjam ko'rinaridi odatdagidan. Muslim momoning bir xayoli sellofan xaltalarni qaytarib yuborishni ta'kidlardi. Lekin..."⁷ u tayyor ovqatni yeb, qornini qappaytirib yotish haqida o'yladi. Shundan so'ng Fayzimurodning sovg'a-salomlar bilan kelishi odatga aylandi. Bir kuni Fayzimurod mashina olmoqchiliginu dabdurustdab aytib qoldi. "Keyin hammangizni shaharga oborib aylantirib kelaman" dedi. "Xoldor kelinning quvonganini ko'rsangiz! Eriga yaldoqlanib qarashlari-chi! Fayzimurod dunyoni poyiga poyandoz qilib qo'ygandek biram xursand, biram..."⁸ Sho'rlik Xoldor bu mashinani eriga kundoshi olib berayotganini qayerdan bilsin? Xoldor qatori hamma xursand edi, faqat Muslim momodan tashqari. Tursunboy chol Oygulning bama'ni ayol ekanini, ularning tashvishni qilib turganni, Xoldor mehnatkash, qo'l-oyog'i chaqqon bo'lsa ham, ular uchun bir marta ham alohida qozon osmaganini ayoliga aytadi. Muslim momo indamadi. Ko'p o'tmay Fayzimurod shahardan mashina minib kelsa ham, u qadar chehrasi ochilmadi. Oradan bir muddat o'tgach Fayzimurod onasini mashinaga mindirib, shaharga yo'l oldi. U onasiga Oygulning "Oila a'zolaringiz ichida onangiz Xizr nazari tushgan ayol bo'lib ko'zimga ko'rindi. Bir o'zlarini olib keling, duosini olayin"⁹ deya

⁷ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. -T: "O'zbekiston". -B.315

⁸ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. -T: "O'zbekiston". -B.316

⁹ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. -T: "O'zbekiston". -B.317



iltimos qilganini, u bilan bir soatgina dildan gaplashib ko'rishini yo'l bo'yi tushuntirdi. Oygulning Muslim momoga mehri bo'lakchaligini, uni ko'p qiyinchilik ko'rgan ayol sifatida uni tushunishini ham aytdi. Bu gaplardan keyin Muslim momoning qarashlari yuvvosh tortib, qaddini ko'tarib, yoyilib o'tirdi. O'sha suhbatdan keyin uning Oygulga bo'lgan munosabati butunlay o'zgardi. Ayniqsa, "Sizga havasim keladi, bag'ri butun ayolsiz" degan gapi ancha yoqqan shekilli, eriga kelib u ayolning ba'mani, kamtarligini aytib rosa maqtadi. Qishloqdan hovli olib, nabiralaridan birining nomiga o'tkazib bermoqchi ekanini, 4 o'g'li bor Fayziga yordam bo'lar deb momo ham bunga rozi bo'lgani aytdi. Endi Muslim momo butunlay o'zgarib qolgandi. U avvalgiday fikrlamasdi. Oygulni ham bo'lar-bo'lmas qarg'ayvermasdi. Shu paytgacha kelini Xoldorning tarafini olgan bo'lsa, endi ona sifatida o'g'liga "zug'um qila olmasligini" his qildi. "Bolam bechora suymagan oshni qanday ichsin? Ota-onasini ranjitmaslik uchun ular tanlagan qizga uylanib, bir umr qiynalib yashagandan ko'ra... Axir bolam ham dunyoga bir marta keladi!" – bu fikrlar kampirning ongiga beozor, samimiyo yo'llar va... to'kin-sochinlik orqali oqib kira boshladidi.¹⁰ Adiba bu jumlalarda Muslim momoning Oygulga nisbatan fikri o'zgarganini "beozor, samimiyo yo'llar va to'kin-sochinlik orqali" bo'lganini ta'kidlab, biroz bo'lsa-da kitobxonga Oygulning xarakterini ochib beradi. Aslida u unchalik ham sodda ayol emas edi. Yaxshi gaplar, sovg'a-salomlar orqali "qaynona-qaynotasi"ning ko'ngliga yo'l topa oldi. Agar u tushunadigan, birovga rahmi keladigan ayol bo'lsa, nega Xoldorni o'rniga o'zini qo'yib ko'rmay, uning oilasini buzishga harakat qildi? Nega birovning erini, bolalarini o'ziniki qilib olmoqchi?

Uning Fayzimurodga "Sizning bolalaringiz mening ham bolam bo'lsa" deganga o'xshash aytgan gapina uning maqsadi yanada ravshanlashadi. Oygul oldin turmush qurban, ammo bolasi bo'limganligi sababli eri bilan ajrashgan. Ko'rikdan o'tganda uning bolali bo'la olmasligi ma'lum bo'lgan. Shuning uchun ham u Fayzimurodga turmushga chiqib, uning bolalariga onalik qilmoqchi edi.

Muslim momo voqeanning bunday tus olishini kutmagandi. "Endi qaytamiz chol" dedi. Ammo Tursunboy chol shimayotgan konfetini tashlab yuborgisi kelmagandek bir muddat tamshanib turdi, so'ng xotiniga ular yo'q desa, bu ayolni boshqa birov ilib ketishini, bolalarning o'rtada bo'lishi, shaharga yangi "onasinikiga" borib kelib turushini, ikkala ayol ham ularning kelini ekanligini, ularga tenglik qilishlari kerakligini uqtirdi. "Yolg'iz qolgan Muslim momo dasturxonagi antiqa shirinliklarga tikilgancha... Xoldor kelinni qanday ko'ndirish haqida bosh qotira boshladidi."¹¹

Adiba ushbu hikoya orqali pul insonni qay darajada o'zgartirish yuborishi, "Yegan og'iz uyalar" maqolining qanchalik haqiqatga yaqinligini ko'rsatib bera olgan. Ayniqsa Tursunboy chol obraqi orqali bu yaqqol ko'zga tashlangan. Bevosita hikoyasi o'qir ekanmiz, Zulfiya Qurolboy qizining "Kelin" hikoyasidagi Xoldor va Xosiyat kelinlarning qismati qanchalik o'xshashligini guvohi bo'lamiz. Ikkalasi ham qaynona-qaynotaning xizmatini qilaman deb, o'zini oldirib qo'ygan, erlari esa o'ziga qarab yuradigan beva

¹⁰ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. –T: "O'zbekiston". –B.318

¹¹ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. –T: "O'zbekiston". –B.320



ayollarga ilakishib qolgani, bu qishloqlik sodda kelinlarning tabiatiga rashkning, erini ter gab turishning, makkoralikning qanchalik yiroqligini ko'ramiz. Bu hikoyalarni o'qigan kitobxonning Xoldor hamda Xosiyat kelin obrazlari rahmini keltirsa, Oygul va muzqaymoqchi xotin obrazlari g'azabini keltiradi. Ammo adiba bu obrazlar tabiatini individual tarzda yaratadi. Xosiyat kelin erini o'zga ayol bilan ko'rib uning butun vujudini rashk va nafrat chulg'ab oladi. Xoldor kelin esa eri uyga kelmay qo'ysayam ter gab turmaydi, hatto qaynona-qaynotasiga ham bu haqida bir og'iz gapirmaydi. Uyiga kelayotgan sovg'a-salomlar, mashinalarni eri qaysi pulga olayotgani haqida qiziqib ham ko'rmaydi. Balki u sezgandir erining ikkinchi xotini borligini, ammo buni hech kimga bildirmaydi, atrofidagi bo'layotgan voqealarga qarshilik ko'rsatmaydi, oila a'zolarining ko'nglini og'ritmaydi. Adiba nafaqat kelin obrazlarini, balki qaynona obrazlarini ham ikki xil tarzda yaratadi. Xosiyat kelinning qaynonasi undan ayb-kamchilik qidiraveradi, qanchalik yelib-yugurib xizmat qilmasin, baribir undan ko'ngli to'lmaydi. Muslim momo esa kelinining yelib-yugurib qilayotgan xizmati, ko'ziga tik qaramasligi uchun ich-ichidan duo qiladi. O'g'lining ikkinchi xotini borligini bilgach kelini Xoldorga rahmi keladi. Avvaliga uni tarafini oladi, ammo pul sababli uning fikri o'zgaradi. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ana shunday qismatda ayol obrazini turlicha gavdalantira olgan. "Kelin" hamda "Rashk" hikoyalarida ham o'zbek kelinlarining sabr-bardoshi, matonati, sodda tabiat, oilasi uchun jonkuyarlik qilishini mahorat bilan tasvirlay olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulfiya Qurolboy qizi "Qadimiy qo'shiq". -T: O'zbekiston, 2012
2. Umurov H. "Badiiy ijod asoslari". -T: O'zbekiston.2001
3. Qayumov L. "Zamondoshlar". G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti- Toshkent.1985
4. Normatov U. "Ijod sehri". -Toshkent. Sharq. 2007
5. Normatov U. "Nafosat gurunglari". -Toshkent."Muharrar", 2010
6. S. Anorboyev, M.Qo'shjonov va A.Quljonov "Badiiy ijod haqida" -T., 1960